



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KRIMINOLOGIYA TADQIQOT INSTITUTI



KRIMINOLOGIK FAOLIYAT

ILMIY-AMALIY JURNAL

O'z.KTI

№1 – 2025 (2) ISSN: 3060-5024



MUASSIS: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KRIMINOLOGIYA TADQIQOT INSTITUTI

Tahrir hay'ati raisi

Berdialiyev Baxtiyor Erkinovich

Institut boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

Tahrir hay'ati a'zolari

Niyazmetov Ikrom Masharipovich

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi mas'ul xodimi, tahrir hay'ati raisi o'rinbosari

Sharafutdinov Alisher Ozodovich

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, dotsent

Jalolov Baxtiyor Odilovich

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist

Ismailov Isamiddin

yuridik fanlar doktori, professor

Ziyodullayev Muzaffar Ziyodullayevich

yuridik fanlar doktori, professor

Otajonov Abrorjon Anvarovich

yuridik fanlar doktori, professor

Rajabov Baxtiyor Almaxmatovich

yuridik fanlar doktori, professor

Xujakulov Siyovush Baxtiyorovich

yuridik fanlar doktori, professor

Safarov Djahongir Ismoilovich

yuridik fanlar doktori, dotsent

Ganiyev Sherzod Alisherovich

yuridik fanlar doktori, dotsent

Ollamov Yarash Yo'ldoshevich

yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Azim Shuhrat Obid o'g'li

yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

Bazarov Farrux Abdugafurovich

yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

Oripov Sobirzoda Sobir o'g'li

yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

Sirliyev Baxtiyor Nazarovich

psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor

Yernazarov Solijon Yerkinovich

iqтisod fanlari bo'yicha falsafa doktori

Yarov Bekmamat Alikulovich

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, bosh muharrir

MUNDARIJA

KRIMINOLOGIK TAHLIL

Berdialiyev B.E.

Jamoat joylarida sodir etiladigan jinoyatlarning kriminologik tahlili, ularning oldini olish mexanizmlarini takomillashtirish 3

Bazarov F.A.

Ayollarga nisbatan sodir etilayotgan odam savdosi jinoyatlari: tahlil, muammo va yechim 10

Умирзаков Б.А.

Некоторые взгляды на становление науки «криминология» в качестве самостоятельной науки 16

Akramov X.F.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarni profilaktika qilishning sotsiologik tahlili 22

A'loxonov M.A.

Zamonaviy kriminologiyada sun'iy intellektdan foydalanishning dolzarb masalalari 29

Boyto'rayev F.M.

Davlat xaridlari sohasida «korruptsiyaga oid jinoyatlar» tushunchasining kriminologik tahlili va nazariy yondashuvlar 36

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT KODEKSI 30 YOSHDA

Якубов А.С., Азим Шухрат

Социальная обусловленность уголовной ответственности юридических лиц 42

Кабулов Р.

Современное состояние и перспективы совершенствования действующего уголовного законодательства Республики Узбекистан 49

Otajonov A.A.

Sun'iy intellekt va robotlashtirish: jinoyat qonunchiligini takomillashtirish istiqbollari 57

KRIMINOLOGIK TADQIQOT

Adilkariyev X.T., Murodov A.Sh.

Notinch oilalar bilan manzilli profilaktika ishlarini tashkil etish yo'nalishlari 71

Ikanov A.A.

Kriminologik profayling – kriminologiyaning yangi predmeti sifatida 77

Tahririyat manzili:

100187, Toshkent shahri

Mirzo Ulug'bek tumani

Buyuk ipak yo'li ko'chasi, 243

Tel.: +998 (71) 231-39-77

Elektron pochta: info@uzkti.uz

Website: kti.iiv.uz

© O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti

Jurnal 2024-yil 21-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan C-5669658 raqami bilan ro'yhatga olingan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2025-yil 12-fevraldagi 367/5-son qarori bilan yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan jurnallar ro'yxatiga kiritilgan.



Muminova Gulnora Taxirovna

Katta muharrir, dizayn

Rasulova Dildora Abdumalikovna

Texnik dizayn

Original-maket O'zbekiston Respublikasi
Kriminologiya tadqiqot instituti Tahririy-noshirlik
markazida tayyorlandi.

Maqolalar har qanday usulda to'liq yoki qisman
ko'chirilib bosilganida «O'zbekiston
Respublikasi Kriminologiya tadqiqot institutining
«Kriminologik faoliyat» ilmiy-amaliy jurnali»dan
olinganligi ko'rsatilishi shart.

Materiallarda keltirilgan fakt va raqamlar,
ko'chirmalar, iqtisodiy statistik ma'lumotlar
rostligi va aniqligi uchun muallif javob beradi.

Muallif fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq
qilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozma taqriz qilinmaydi
va qaytarilmaydi.

Tahririyat xatlar mualliflari bilan yozishmaydi.

Bichimi 60x40 1/8.

Bosma tabag'i 9,0

Adadi 50 nusxa

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya
tadqiqot instituti Tahririy-noshirlik markazida
chop etilgan.

Bosishga ruxsat etildi 17.04.2025

Buyurtma № 25/17

MUNDARIJA

Nizametdinxodjayev U.R.

Zo'rvonlik jinoyatlari determinatsiyasi va ularni oldini olishning
asosiy yo'nalishlari 81

Maxmudov D.R.

Kiberxavfsizlik jinoyatlarining oldini olish – davr talabi 89

Xasanov Sh.E.

O'g'rilik jinoyati uchun javobgarlik masalasi va ushbu turdagi jinoyatlarni
oldini olishning o'ziga xos xususiyatlari 92

Davranov X.B.

Ichki ishlar organlarining korrupsiyaviy jinoyat sodir etgan xodimi
(jinoyatchi shaxsi)ning kriminologik tavsifi 99

Maxmutova Yu.B.

Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'rvonliklar
profilaktikasining institutsional asoslari 104

ILMIY IZLANISHLAR

Kaxarova M.M.

Qadimgi Xitoyda jinoyat va jazo masalasi 112

Kudratov B.B.

Axborot tizimi (texnologiyalari)dan foydalanib sodir etiladigan firibgarlik
jinoyati tushunchasi va tasnifi 118

Ачилов А.Т., Абдуганиев У.С.

Проблемы незаконного изготовления, приобретения, хранения и
других действий с наркотическими средствами, их аналогами или
психотропными веществами с целью сбыта военнослужащими 123

Матчанов Р.А.

Эффективность средств самбо и рукопашного боя при боевой
физической подготовке курсантов 129

Jumaniyozov N.G'.

Voyaga yetmaganlarning jinsiy daxlsizligiga qarshi jinoyat sodir etgan
jinoyatchi shaxsining kriminologik tasnifi 133

KRIMINOLOGIYA FANI FIDOYILARI

Blinder B.A., Zakirova A.G. 138

Mirzajonov Q., Niyozova S.S. 139

ANJUMANLAR. TADBIRLAR. TAQDIMOTLAR

Международное сотрудничество

Визит в Уральский государственный юридический университет
имени В.Ф. Яковлева (Екатеринбург, Россия) 140

Hamkorlik memorandumlarini imzolash marosimi 142

ZAMONAVIY KRIMINOLOGIYADA SUN'IY INTELEKTDAN FOYDALANISHNING DOLZARB MASALALARI



A'loxonov Muxammadmirzoxon Adhamxon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti
ilmiy xodimi

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy kriminologiyada sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning dolzarb masalalari tahlil qilingan, jinoyatchilikka qarshi kurashda ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va prognozlash jarayonlarida sun'iy intellektning ahamiyati, imkoniyatlari va cheklovlari yoritilgan. Shuningdek, jinoyatlarni o'rganishda raqamli texnologiyalarni joriy etishdagi ayrim muammolar ko'rib chiqilib, kriminologiya sohasidagi raqamli transformatsiyaning ilmiy va amaliy asoslarini aniqlashga qaratilgan takliflar ishlar chiqilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, raqamli jinoyatchilik, kriminologik faoliyat, zamonaviy kriminologiya, jinoyatchilikni ilmiy tadqiq qilish, ilmiy tahlil, ilmiy prognoz va diagnostika.

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СОВРЕМЕННОЙ КРИМИНОЛОГИИ

Аннотация. В данной статье анализируются актуальные вопросы использования технологий искусственного интеллекта в современной криминологии, освещается значение, возможности и ограничения искусственного интеллекта в процессах сбора, анализа и прогнозирования данных в борьбе с преступностью. Рассмотрены некоторые проблемы внедрения цифровых технологий в изучении преступлений, разработаны предложения, направленные на определение научных и практических основ цифровой трансформации в области криминологии.

Ключевые слова: искусственный интеллект, цифровая преступность, криминологическая деятельность, современная криминология, научное исследование преступности, научный анализ, научный прогноз и диагностика.

CURRENT ISSUES OF THE USE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN MODERN CRIMINOLOGY

Abstract. This article analyzes the current issues of using artificial intelligence technologies in modern criminology, highlighting the significance, possibilities, and limitations of artificial intelligence in the processes of collecting, analyzing, and forecasting data in the fight against crime. Some problems in implementing digital technologies for studying crimes are examined, and proposals are developed aimed at determining the scientific and practical foundations of digital transformation in the field of criminology.

Keywords: artificial intelligence, digital crime, criminological activity, modern criminology, scientific research of crime, scientific analysis, scientific forecasting and diagnosis.

Jahonda jinoyatchilikni ilmiy jihatdan o'rganish bo'yicha zamonaviy va samarali tizimni joriy etish, xalqaro standartlar asosida sud-tergov faoliyatini yo'lga qo'yish, xalqaro huquq normalarini konstitutsiyaviy prinsiplarga muvofiq mustahkamlash, qonunchilikdagi bo'shliqlarni bartaraf etish

hamda jinoyat ishi bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan holatlarni sinchkovlik bilan, to'liq va xolis tekshirilishini ta'minlovchi milliy qonun hujjatlarida uchraydigan muammolarni tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoda taraqqiyot va xavfsizlikka raxna solayotgan xavf-xatar va tahdidlar, avvalo,

transmilliy jinoyatlar va yot g'oyalar ta'sirining tobora kuchayib borayotganligi ularga barham berish va o'z vaqtida oldini olish bo'yicha zamonaviy va samarali tizimni yo'lga qo'yishni taqozo etmoqda. Huquqbuzarliklar profilaktikasini jinoyatchilikka qarshi kurashishning bosh yo'nalishiga aylantirish, qonun buzilishlarining oldini olish va ularni bartaraf etishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish bo'yicha puxta o'ylangan va izchil harakatlarni davom ettirish zarurati oshib bormoqda.

Jahonda huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olishning ta'sirchan tizimini yaratish, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, fuqarolarga qonunga hurmat va qonun buzilishining har qanday ko'rinishiga murosasizlik munosabatini singdirish, profilaktik ishlarni muvofiqlashtirish, huquqbuzarliklar umumiy profilaktikasining zamonaviy tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish bo'yicha qonunchilik normalari va ularni qo'llash amaliyoti bilan bog'liq muammolarning ilmiy yechimini topish dolzarb hisoblanadi. Shuningdek, huquqbuzarliklar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish tizimini takomillashtirish istiqbollari tadqiq etish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Zamonaviy jamiyatda jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi murosasiz kurashish doimo dolzarb masala bo'lib kelgan. Kriminologiya jinoyatlarni ilmiy jihatdan o'rganish va ularni kompleks tahlil qilish orqali jamiyat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy soha sifatida rivojlanib bormoqda. Bugungi kunda texnologik yutuqlar, jumladan, sun'iy intellekt (AI-SI) kabi yangi vositalar kriminologiyaning samaradorligini oshirishga katta hissa qo'shmoqda. Sun'iy intellekt o'zining avtomatik o'rganish va qaror qabul qilish qobiliyati bilan jinoyatlarni prognoz qilish, jinoyatchilarni aniqlash jarayonlarini tezlashtirishda va yanada aniqroq ish faoliyatini olib borishda o'zining samaradorligini ko'rsatib kelmoqda [1].

Kriminologiyaning kelajagi nafaqat an'anaviy usullar, balki texnologik yondashuvlar orqali ham bosqichma-bosqich rivojlanmoqda.

Sun'iy intellektning kriminologiyadagi integratsiyasi, jinoyatlarni tahlil qilish va oldini olishning yangi yondashuvlarni namoyon qilmoqda. Bu esa huquqni muhofaza qilish tizimining samaradorligini oshirish, jinoyatchilikka qarshi kurashishda yangi strategiyalar ishlab chiqish va jamiyatda xavfsizlikni ta'minlashda muhim qadamlarni tashlash imkoniyatini beradi [2].

Shu bilan birga, sun'iy intellektning kriminologiyaga joriy etilishi bir qator omillarga ahamiyat qaratish zaruratini ham yuzaga keltiradi. Buning natijasida, texnologiyalarni joriy etishda muvozanatni saqlash va inson huquqlarini himoya qilish zaruriyati yanada dolzarb bormoqda. Zamonaviy kriminologiya va sun'iy intellektning o'zaro bog'liqligi nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga ega bo'lgan tadqiqot mavzusi hisoblanadi. Jinoyatchilikni ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish o'ziga xos ijtimoiy-huquqiy yondashuvni talab etadi.

AI texnologiyalarining rivojlanishi bilan kriminologiya sohasida yangi yondashuvlar va imkoniyatlar paydo bo'ldi. An'anaviy kriminologik tadqiqotlar asosan jinoyatlarni o'rganish, jinoyatchilikni tahlil qilish va jinoyatchilarni jazolash mezonlariga qaratilgan bo'lsa, sun'iy intellekt ushbu jarayonlarni yanada samarali va operativ boshqarishda katta yordam bermoqda. AI texnologiyalarining rivoji jinoyatlarni oldini olish, ularni aniqlash va jinoyatchilarni fosh etish jarayonlarini yanada mukammallashtirishga imkon yaratmoqda.

Sun'iy intellektning kriminologiyadagi qo'llanilishi nafaqat huquqni muhofaza qilish tizimlariga yordam beradi, balki jinoyatlarni prognoz qilish, ularning sodir bo'lish ehtimolini aniqlash, jinoyatchilarni kuzatish, yaqin, o'rta va uzoq muddatda jinoyatchilik tendensiyalarida kuzatilishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni ilmiy metodlar asosida prognoz qilishda ham muhim o'rin tutadi. Zamonaviy kriminologiyadagi sun'iy intellektning eng katta yutuqlaridan biri jinoyatlarni prognoz qilishda qo'llanilishi hisoblanadi. AI tizimlari, oldingi jinoyatlarni tahlil qilib, yangi jinoyatlar yuz berish ehtimolini aniqlashda yordam beradi. Masalan, "**Predictive**

Policing” (oldindan prognoz qilish asosida huquqni muhofaza qilish) texnologiyasi yordamida jinoyatchilik yuqori bo'lgan hududlar aniqlanadi va huquqni muhofaza qilish organlari o'z resurslarini samarali taqsimlashlari mumkin [3]. Bu texnologiyalar nafaqat jinoyatchilikni aniqlash va oldini olishda samarali bo'lsa, balki jinoyatchilikning sabablarini tahlil qilishda ham yordam beradi. Kriminologiyada jinoyatlarni tahlil qilish uchun ilmiy asoslarda tadqiq etish kerak bo'lgan omillar, masalan, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy faktorlar, sun'iy intellektning ilg'or algoritmlari yordamida tez va aniq tahlil qilinishi mumkin. Sun'iy intellektning avtomatlashtirilgan algoritmlari jinoyatchilikning kompleks sabablarini o'rganishda, jinoyatchilikni kamaytirishning samarali strategiyalarini ishlab chiqishda yordam beradi.

Bundan tashqari, sun'iy intellektning o'ziga xos xususiyatlari, masalan, katta hajmdagi ma'lumotlarni tez va samarali tahlil qilish qobiliyati, uning kriminologiyada qo'llanilishining samaradorligini yanada oshiradi. Ma'lumotlar tahlili yordamida jinoyatlarning tendensiyalarini aniqlash, jinoyatchilarning xatti-harakatlarini tushunish va ularning kela-jakdagi faoliyatini prognoz qilishda sun'iy intellekt juda foydali vosita bo'ladi. Shuningdek, jinoyatchilikni oldini olish va jinoyatga qarshi kurashishda, sun'iy intellektning aniq prognozlari, statistik tahlillari va algoritmlari huquqni muhofaza qilish idoralariga samarali yordam beradi.

Sun'iy intellekt va kriminologiyaning integratsiyasi yangi eraga, ya'ni jinoyatlarni oldini olishda va huquqni muhofaza qilishda texnologik yondashuvlarning amaliy qo'llanilishiga olib keladi. Al texnologiyalarining rivojlanishi va kriminologiyadagi o'zgarishlar bu sohani yanada samarali va aniqroq qilishga yordam beradi, bu esa jamiyatda xavfsizlikni ta'minlash uchun muhim qadam bo'ladi. Sun'iy intellekt yordamida ishlab chiqilgan Predictive Policing tizimlari jinoyatlarning sodir bo'lishi mumkin bo'lgan joylari va vaqtlarini aniqlashga yordam beradi. Bu tizimlar katta hajmdagi tarixiy jinoyat

ma'lumotlarini tahlil qiladi va jinoyatlarning takrorlanish ehtimolini prognoz qiladi. Misol uchun, biron bir hududda avvalgi jinoyatlar va jinoyatlarning turini tahlil qilib, tizim jinoyat sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yangi hududlarni aniqlaydi. Politsiya shu hududlarga ko'proq e'tibor qaratib, jinoyatlarni oldini olishga harakat qilishi mumkin. Predictive Policing tizimlari nafaqat jinoyat joylarini aniqlash, balki jinoyatchilarni prognoz qilishda ham yordam beradi. Masalan, ba'zi tizimlar ilgari jinoyatga aloqador bo'lgan shaxslarning ehtimoliy xatti-harakatlarini aniqlashga qodir. Bu orqali, politsiya tomonidan jinoyatchilarning qaytadan jinoyat qilish ehtimoli bo'lgan shaxslar o'rganiladi va ularning harakati ustidan kuzatuv o'rnatiladi [4].

Sun'iy intellekt va mashina o'rganish texnologiyalari, jinoyatlarni prognoz qilishda muhim vositalardan biridir. Jinoyatlarni prognoz qilish uchun ishlatiladigan algoritmlar jinoyatlar haqidagi katta hajmdagi ma'lumotlarni, shu jumladan jinoyatlar sodir bo'lgan joylar, jinoyatchilar, vaqt va ijtimoiy omillarni tahlil qiladi. Bu usul, o'z navbatida, jamiyatdagi jinoyatchilikning sabablarini o'rganishga yordam beradi va jinoyatchilikning o'sishini oldini olish uchun samarali strategiyalarni ishlab chiqish imkonini yaratadi.

Mashina o'rganish algoritmlari, jinoyatchilikning mavjud tendensiyalarini o'rganib, yangi jinoyatlarning sodir bo'lish ehtimolini prognoz qiladi. Masalan, biror hududda tez-tez sodir bo'ladigan o'g'rilik jinoyatlarini oldindan prognoz qilish uchun, sun'iy intellekt jinoyatlarning joylashuvi, vaqti, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan soat va kunni aniqlashda yordam beradi. Bu esa ichki ishlar organlariga jinoyatlarni oldindan aniqlash va profilaktik tadbirlar ko'rish imkonini beradi.

Geografik ma'lumotlar tahlili (GIS) yordamida jinoyatlarni prognoz qilish, "jinoyat o'choqlari"ni aniqlashda ishlatiladi. GIS texnologiyalari jinoyatlar sodir bo'lgan hududlarni xaritalab, jinoyatlarning takrorlanish ehtimoli bo'lgan joylarni aniqlaydi. Bu usul jinoyatlarni tahlil qilishda muhim rol o'ynaydi, chunki u

jinoyatlarning faqat hududga emas, balki vaqtga va boshqa ijtimoiy omillarga bog'liq ekanligini ko'rsatadi [5]. Hot spotlar, ya'ni jinoyatlar yuqori ehtimollik bilan sodir bo'ladigan joylar, politsiya tomonidan ko'proq nazorat qilinishi kerak bo'lgan hududlarni bildiradi.

Geografik ma'lumotlar yordamida jinoyatchilikning yuqori ehtimollik bilan sodir bo'lishi mumkin bo'lgan joylari aniqlangach, huquq-tartibot organlari resurslarini samarali taqsimlash va jinoyatchilikning oldini olish uchun tezkor choralar ko'rish mumkin. Misol uchun, ko'plab jinoyatlar sodir bo'lgan hududda patrul xizmati kuchaytiriladi, video kuzatuv tizimlari o'rnatiladi va jinoyatchilikka qarshi profilaktik chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Jinoyatlarni prognoz qilishda sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanilishi ba'zan ayrim juz'iy masalalarni yuzaga keltiradi. Algoritmalar ba'zan to'laqonli bo'lmasligi mumkin, bu esa ayrim guruhlar yoki individlarning tahlili va qarorlarga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, jinoyatlarni prognoz qilishda yashirin diskriminatsiya xavfi ham mavjud. Misol uchun, ayrim hududlarda aholining ma'lum guruhlari yoki etnik kelib chiqishi asosida jinoyatlarni prognoz qilish tengsizlikni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun, prognoz qilish tizimlarining aniqligi, adolati va shaffofligini ta'minlash uchun nazorat zarur.

Sun'iy intellektning mashina o'rganish, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP), yuzni tanish texnologiyasi, prognozlash algoritmalar kabi imkoniyatlari huquqni muhofaza qilish organlari va xavfsizlik tizimlariga jinoyatchilikni oldindan aniqlash va samarali profilaktik tadbirlar ko'rish imkonini beradi [6]. Dunyoning turli burchaklarida AI texnologiyalaridan jinoyatlarning oldini olishda muvaffaqiyatli foydalanilayotganini ko'rishimiz mumkin.

AQSHda sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlilining jinoyatlarni oldini olishdagi roli juda katta. Predictive Policing (oldindan prognoz qilish) texnologiyasi bir nechta politsiya departamentlarida samarali qo'llanilmoqda. Masalan, PredPol deb nomlangan tizim Los-Anjeles va

boshqa shtatlar tomonidan ishlatilgan. PredPol tizimi, jinoyatlar sodir bo'lgan hududlar va vaqtlarni tahlil qilib, politsiyaga jinoyatlarni oldindan prognoz qilish imkoniyatini beradi. Bu tizim yordamida jinoyatlar ko'p sodir bo'ladigan joylar (hot spots) aniqlanadi va politsiya kuchlari bu hududlarga ko'proq e'tibor qaratadi [7].

Los-Anjelesda ushbu tizimni joriy etish orqali jinoyatlarning aniq prognozlari tuzilib, politsiya kuchlari resurslarini samarali taqsimlash imkoniga ega bo'ldi. Biroq, ayrim tadqiqotchilar, bu texnologiya faqat jinoyatchilikka qarshi kurashishni kuchaytirganini, balki ayrim mahallalarda ijtimoiy tengsizlik va diskriminatsiyani kuchaytirganini ta'kidlagan. Bu tizimlar to'g'risidagi bahslar, aniq ma'lumotlar va statistik tahlilga asoslangan yondashuvlarni qo'llashning zarurligini ko'rsatadi.

Buyuk Britaniyada sun'iy intellekt texnologiyalari jinoyatlarning oldini olishda keng qo'llanilmoqda. Yuzni tanish texnologiyasi, ayniqsa, Londondagi jamoat joylarida jinoyatlarning oldini olishda samarali vosita sifatida ishlatilmoqda. Britaniyada CCTV kameralar orqali ko'plab hududlarda yuzni tanish tizimlari o'rnatilgan, bu orqali jinoyatchilarni tezda aniqlash va ushlash imkoniyati yaratilgan. Yuzni tanish texnologiyasi, shuningdek, jamoat xavfsizligini ta'minlashda ham yordam beradi, chunki tizim jamoat joylarida shaxslarni real vaqtda kuzatib boradi va jinoyatchilarni aniqlash imkoniyatini oshiradi [8].

Londonda o'tkazilgan tadqiqotlar, yuzni tanish texnologiyasining o'rnatilishi orqali jinoyatlarni sezilarli darajada kamaytirishga erishilganini ko'rsatdi. Misol uchun, jamoat joylaridagi o'g'riliklar va zo'ravonlik jinoyatlarining soni kamaydi. Biroq, bu texnologiyalarning ishlatilishi bilan bog'liq maxfiylik va inson huquqlari masalalari ko'tarildi. Shuning uchun, Buyuk Britaniya hukumati yuzni tanish texnologiyalarini qo'llashda qat'iy normativ qoidalarni joriy qilishga harakat qilmoqda.

Germaniya ham sun'iy intellekt texnologiyalarini jinoyatlarni oldini olishda muvaffaqiyatli qo'llayotgan davlatlardan biridir.

Germaniya politsiyasi, ma'lumotlar tahlili va AI texnologiyalaridan foydalanib, jinoyatlarni oldindan prognoz qilish, jinoyatlarni kuzatish va huquqni muhofaza qilishni samarali boshqarishda muhim yutuqlarga erishdi. VeriPol tizimi orqali jinoyatlarni oldindan prognoz qilish, shuningdek, internetdagi jinoyatlarni (kiberjinoyatlar) aniqlashda yordam beradi.

Germaniya shaharlarida "smart policing" (aqlli politsiya) yondashuvi ishlatilmoqda. Bu yondashuvda, politsiya AI yordamida jinoyatlarni tezda aniqlash va shu bilan birga jinoyatchilikning oldini olishda samarali choralar ko'rmoqda. Misol uchun, bitta Germaniya shahri, jinoyatlarni oldini olish uchun interaktiv CCTV tizimlaridan foydalanadi, bu tizimlar real vaqt rejimida voqealarni tahlil qiladi va politsiyaga jinoyat sodir bo'lishi mumkin bo'lgan hududlarni aniqlashda yordam beradi [9].

Singapur xavfsizligi bilan tanilgan davlatlardan biri va u sun'iy intellekt texnologiyalarini jinoyatlarning oldini olishda muvaffaqiyatli qo'llab kelmoqda. Singapur politsiyasi sun'iy intellekt va analitik tizimlarni qo'llab, jinoyatchilikka qarshi kurashishda yuqori samaradorlikka erishgan. "Smart Nation" tashabbusi doirasida, Singapurda politsiya va xavfsizlik xizmatlari, analitik tizimlar va sun'iy intellektni birlashtirib, jinoyatchilikni kamaytirishga yordam beradi. Singapurning "Smart Nation" tashabbusi 2014-yilda boshlangan va uning maqsadi – texnologiyalar yordamida hayot sifatini yaxshilash va mamlakatni yanada rivojlantirish. Bu tashabbus Singapurning raqamli transformatsiyasi uchun asos bo'lib, aholining turmush tarzini o'zgartirish, shaharni "smart city" qilish va iqtisodiyotni yanada samarali qilishga qaratilgan. Singapur politsiyasi aqlli kuzatuv tizimlarini joriy etgan. Bu tizimlar kengaytirilgan video kuzatuv (CCTV) kameralarini, yuzni aniqlash texnologiyalarini, harakatni aniqlash tizimlarini va ma'lumotlar tahlilini o'z ichiga oladi. Politsiya jamoalari shahar bo'ylab yuzaga kelgan jinoyatlarni tezda aniqlash va ularga samarali javob berish imkoniyatiga ega. Yuzni aniqlash texnologiyalari jinoyatchilarni aniqlash

va ularni tezda tutish imkonini beradi. "Smart Nation" tashabbusining bir qismi sifatida Singapurda favqulodda vaziyatlar va xavfsizlik tizimlari avtomatlashtirilgan va aqlli tizimlar yordamida boshqariladi. Politsiya xavfsizlikka tahdidlar yuzaga kelganida tezkor javob bera oladi, bu esa jinoyatlarning oldini olishda va tezkor choralar ko'rishda muhim rol o'ynaydi [10].

Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt texnologiyalarini jinoyatlarning oldini olishda muvaffaqiyatli qo'llash uchun quyidagi asosiy omillarni hisobga olish kerak:

Maxfiylik va etnik masalalar: Texnologiyalarni joriy etishda maxfiylikni ta'minlash, axborot xavfsizligini mustahkamlash va inson huquqlarini himoya qilish zarur.

Shaffoflik va nazorat: Texnologiyalarni ishlatishda ularga oid qarorlar shaffof bo'lishi hamda tizimlarning adolatli ishlashi ta'minlanishi kerak.

Jamiyatga moslashuv: Jinoyatlarning oldini olishdagi texnologiyalar faqatgina yuqori darajada rivojlangan infratuzilmalarda samarali ishlaydi, shuning uchun yangi texnologiyalarni joriy etishdan oldin mavjud sharoitlarni hisobga olish zarur.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining jinoyatlarni oldini olishdagi roli tobora oshib bormoqda. Xorijiy tajribalar, AI texnologiyalarini samarali qo'llash orqali jinoyatchilikni kamaytirish va xavfsizlikni ta'minlashda sezilarli yutuqlarga erishilganini ko'rsatmoqda [11]. Biroq, texnologiyaning foydali tomonlari bilan birga etik, huquqiy va maxfiylik masalalarini hisobga olish zarurati bor. Bu masalalarni hal qilish uchun qat'iy nazorat va me'yoriy tartibga solish zarur bo'ladi.

To'g'ri, zamonaviy kriminologiyani sun'iy intellektsiz tasavvur qilish imkonsiz. Biroq, xalq orasida "tanganing ikki tomonini birdek ko'rish kerak" deb bejizga aytilmagan. Jinoyatchilikka qarshi kurashishda ham sun'iy intellektning bir qator salbiy tomonlari mavjud.

Texnologiyaning noto'g'ri ishlashi va xatoliklar. Sun'iy intellekt tizimlari ma'lumotlarni tahlil

qilishda tez va samarali bo'lsa-da, ularning noto'g'ri ishlash ehtimoli ham mavjud. Agar tizim noto'g'ri prognozlar yoki qarorlar qabul qilsa, bu jinoyatchilarni aniqlash yoki jabrlanuvchilar viktimgilining oldini olishda muammolar yuzaga keltirishi mumkin.

Shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiylik. Kriminologik va jinoyatchilikka oid ma'lumotlar bazalarini ishlab chiqishda, shaxsiy ma'lumotlar himoyasiga katta e'tibor qaratish zarur. Sun'iy intellekt yordamida yig'ilgan ma'lumotlar no-qonuniy tarzda ishlatilishi yoki o'g'irlanishi mumkin, bu esa shaxsiy hayotga tajovuz qilishni anglatadi.

Etik va ijtimoiy masalalar. Sun'iy intellekt tizimlari xulq-atvorni avtomatik ravishda baholaydi, ammo bu tizimlar insoniyatning barcha murakkab ijtimoiy va axloqiy nuanslarini to'liq tushunmasligi mumkin. Bu esa ayrim etika muammolariga olib kelishi mumkin: masalan, tizimlarning ijtimoiy adolatsizlikni kuchaytirish xavfi mavjud.

Mazkur muammolar yuzaga kelish xavfini ilmiy asoslantirilgan taklif va tashabbuslar orqali minimal ko'rsatkichga kamaytirish mumkin.

Sun'iy intellektni jinoyatchilikning oldini olish va jinoyatlarni tahlil qilishda yanada faolroq qo'llash, ma'lumotlarni tahlil qilish, jinoyat joylaridagi tasvirlarni qayta ishlash va yuzni tanish texnologiyalaridan foydalanishni kuchaytirish zarur. Bunda texnik resurslar va malakali mutaxassislarni tayyorlash, zamonaviy AI tizimlari bilan ishlash uchun huquq-tartibot organlari ta'lim muassasalarida (IIV Akademiyasi, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, Jamoat xavfsizligi universiteti) zamonaviy o'quv kurslarini malakali mutaxassis xodimlar tomonidan o'qitilishini yo'lga qo'yish zarur. Bunda, mazkur yo'nalishdagi ilmiy manbalarni ishlab chiqishda O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya institutining mavjud resurslari va ilmiy salohiyatidan keng foydalanish lozim.


Sun'iy intellekt texnologiyalarining qonuniy asoslarini ishlab chiqish, uning foydalanish doirasini aniqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashishda xavfsiz va qonuniy foydalanishni

ta'minlash kerak. AI texnologiyalarining foydalanuvchi ma'lumotlarini himoya qilish, jinoyatlarni aniqlashda adolatlilikni ta'minlash uchun mamlakatimizda jinoyatchilikka qarshi kurashishda sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha qonunchilik bazasini yaratish zarur.

Jinoyatchilikni ilmiy tadqiq etish jarayonida AI dan foydalanish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot institutida yetakchi xorijiy va milliy ilmiy hamda ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorlikda yangi avlod ilmiy tashkiloti — "Smart ilmiy tadqiqot muassasasi" konsepsiyasini ishlab chiqish hamda sinovdan o'tkazish maqsadga muvofiq [12]. Bunda, kriminologik faoliyatni ilmiy va ekspertlik jihatdan ta'minlashda ixtisoslashtirilgan Kriminologiya tadqiqot instituti faoliyatida aqlli boshqaruv, ilmiy laboratoriya, ilmiy diagnost va prognoz qilishda raqamli texnologiyalarni qo'llash bo'yicha manzilli va kompleks chora-tadbirlarni yo'lga qo'yish lozim.

Zamonaviy kriminologiyada sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanilishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, jinoyatchilikka qarshi kurashishda samarali vosita bo'lishi ehtimoli juda yuqori. Sun'iy intellekt, ayniqsa, jinoyatlarni aniqlash va oldini olishda yangi imkoniyatlar yaratadi. O'zbekistondagi kriminologik muhitda sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanilishi jinoyatchilikni tezkor aniqlash, profilaktik yondashuvlarni kuchaytirish hamda jinoyatchilarning xatti-harakatlarini tahlil qilish imkonini beradi.

Sun'iy intellektni kriminologiyada samarali qo'llashda "mustahkam qonunchilik bazasi – ma'lumotlar xavfsizligi – aqlli boshqaruv" tizimi asosida ishlash mexanizmini yaratish, ilg'or xorijiy tajribani tizimli tadqiq etish, bu jarayonlarda etik va ijtimoiy mas'uliyatni hisobga olish muhimdir.



Foydalanilgan manbalar

1. AI and Crime: How Artificial Intelligence is Advancing Crime Prevention // Article // <https://www.cognnyte.com>.
2. Christopher Rigano // Using artificial intelligence to address criminal justice needs // Article // <https://www.ojp.gov/pdffiles1/nij/252038.pdf>.
3. Predictive Policing: The Role of Crime Forecasting in Law Enforcement Operations, by Walter L. Perry, Brian McInnis, Carter C. Price, Susan C. Smith, and others // (http://www.rand.org/pubs/research_reports/RR233.html), 2013. T.
4. Fei Yang // Predictive Policing in the United States // Article // <https://oxfordre.com/criminology/>
5. What is a geographic information system (GIS)? // Article // <https://www.usgs.gov>.
6. Machine Learning (ML) for Natural Language Processing (NLP) // Article // <https://www.lexalytics.com/blog>.
7. Artificial intelligence recruited to fight crime // <https://www.ekathimerini.com>.
8. Types of CCTV cameras in the UK // Article // <https://www.pelco.com/blog>.
9. T Feltes. // Community Policing in Germany // book // <http://www.smartpolicinginitiative.com>.
10. Smart Nation 2.0 A Thriving Digital Future for All // book // Ministry of Digital Development and Information // <https://file.go.gov.sg/smartnation2-report.pdf>.
11. Tatia Dolidze // The Role of Artificial Intelligence in Criminal Justice — Reality and Perspective // <https://lawandworld.ge/index.php/law/article/view/576>.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kriminologiya sohasida ilmiy-amaliy tadqiqot ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 15-yanvardagi PQ–22-son qarori.

